


IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK



2021- yil yanvar-sentabr



2021- yilning yanvar-sentabrida kichik
biznes va xususiy tadbirkorlik
subyektlarining YaHMDagi ulushi


Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar


➤ 2021- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi 73,3 % ni tashkil etdi.

➤ Kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga 14,6 birlikni tashkil qildi.

➤ 2021- yilning yanvar-sentabrida 4837 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24,0 foizga kam.



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yi cha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 1872 ta, sanoatda 1376 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 363 ta, qurilishda 336 ta, yashash va ovqatlanishda 211 ta, tashish va saqlashda 116 ta tashkil etilgan.

Yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2020- y.	2021- y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	30 633	36 325	5 692
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	6 360	4 837	-1 523

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushlari:

YAHM	%	68,8	73,3	4,5
Sanoat	%	18,4	29,0	10,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,7	98,2	-0,5
Investitsiya	%	65,5	60,4	-5,1
Qurilish	%	93,1	95,8	2,7
Chakana savdo	%	87,9	89,9	2,0
Xizmatlar	%	67,4	63,1	-4,3
Yuk tashish	%	95,1	94,9	-0,2
Yuk aylanmasi	%	67,7	65,2	-2,5
Yo'lovchi tashish	%	97,7	97,7	0
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,4	97,1	-0,3
Eksport	%	45,0	39,0	-6,0
Import	%	13,1	14,0	0,9



2021- yilning yanvar - sentabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da


YaHM 73,3%	Savdo 89,9%
Sanoat 29,0%	Qurilish 95,8%
Investitsiya 60,4%	Eksport 39,0%
Xizmatlar 63,1%	Import 14,0%

**Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	(+;-)
Andijon viloyati	6 360	4 837	-1 523
<i>shaharlar:</i>			
Andijon sh.	1 584	1 143	-441
Xonobod sh.	110	126	16
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	323	198	-125
Andijon	385	415	30
Baliqchi	368	378	10
Bo'ston	254	164	-90
Buloqboshi	267	180	-87
Jalaquduq	353	225	-128
Izboskan	335	215	-120
Ulug'nor	144	101	-43
Qo'rg'ontepa	320	226	-94
Asaka	580	435	-145
Marhamat	289	194	-95
Shahrixon	465	340	-125
Paxtaobod	280	234	-46
Xo'jaobod	303	263	-40



2021- yil yanvar- sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Andijon shahri – 23,6 %, Asaka tumani – 9,0 %, Andijon tumani – 8,6 %, Baliqchi tumani 7,8 %, Shahrixon tumani – 7,0 %, Xo'jaobod tumani – 5,4 %, Paxtaobod tumani – 4,8 %, Qo'rg'ontepa tumani – 4,7 % ga tegishli.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	farqi (+;-)
Jami	6 360	4 837	-1 523
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	788	363	-425
Sanoat	2 124	1 376	-748
Qurilish	369	336	-33
Savdo	2 161	1 872	-289
Tashish va saqlash	165	116	-49
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	226	211	-15
Axborot va aloqa	92	112	20
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	107	125	18
Boshqa faoliyat turlari	328	326	-2

Ma'lumot uchun: 2021– yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	Farqi (+;-)
Andijon sh.	1 584	1 143	-441
Asaka	580	435	-145
Andijon	385	415	30
Baliqchi	368	378	10
Shahrixon	465	340	-125
Xo'jaobod	303	263	-40
Paxtaobod	280	234	-46
Qo'rg'ontepa	320	226	-94

2021- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida – 1 143 tani tashkil etdi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda






2021- yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 14,6 birlikni tashkil etdi.



Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra*




2021- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida 26,8 birlik, Ulug'nor tumanida 24,3 birlik, Xo'jaobod tumanida 18,8 birlik, Bo'ston tumanida 17,4 birlik, Xonobod shahrida 16,8 birlik, Asaka tumanida 14,2 birlik, Baliqchi tumanida 14,2 birlikni tashkil etgan. Izboskan tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 9,1 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




**2021- yilning yanvar- sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha
faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni**
(har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2021- yilning yanvar- sentabrida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik biznes subyektlari soni eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



Faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori ko'rsatkich

• Andijon shahri
• 26,8 birlik.


O'rtacha ko'rsatkich

• Xo'jaobod tumani
• 18,8 birlik.

Eng past ko'rsatkich

• Izboskan tumani
• 9,2 birlik.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, (yanvar-sentabr holatiga ko'ra, % da)

2021- yilning yanvar- sentabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi 73,3 % ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar- sentabrida 68,8 %).

YAHMning o'tgan yilga nisbatan ko'payishi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan izohlanadi.

71,0%

2019- Y.

68,8%


2020- Y.

73,3%

2021- Y.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



**2021- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
subyektlarining tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy
tarmoqlaridagi ulushi, (%) da**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Andijon viloyati	29,0	95,8	63,1	60,4
<i>shaharlar:</i>				
Andijon sh.	32,7	94,1	62,9	61,4
Xonobod sh.	37,8	98,5	80,0	58,2
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko‘l	64,3	100,0	69,2	73,9
Andijon	81,0	98,3	65,4	51,0
Baliqchi	41,4	100,0	63,2	86,2
Bo‘ston	68,5	89,3	70,6	70,2
Buloqboshi	100,0	100,0	63,9	87,1
Jalaquduq	73,2	81,1	64,6	88,6
Izboskan	31,2	100,0	61,3	27,5
Ulug‘nor	58,5	79,9	78,7	87,3
Qo‘rg‘ontepa	40,2	97,2	52,0	79,8
Asaka	4,1	100,0	53,9	17,4
Marhamat	71,3	100,0	70,4	79,3
Shahrixon	81,4	100,0	58,5	61,8
Paxtaobod	48,7	100,0	60,3	77,0
Xo‘jaobod	67,0	100,0	59,0	76,9

Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi eng ko‘p:

Sanoatda-

Buloqboshi (100 %),
Shahrixon (81,4 %),
Andijon (81,0 %),
Jalaquduq (73,2 %),
Marhamat (71,3 %),
Bo‘ston (68,5 %) va
Xo‘jaobod (67,0 %)
tumanlarida.


Qurilishda-

Oltinko‘l (100 %),
Buloqboshi (100 %),
Izboskan (100 %),
Asaka (100 %),
Marhamat (100 %),
Shahrixon (100 %) va
Paxtaobod (100 %)
tumanlarida.


Xizmatlarda-

Xonobod sh. (80 %),
Ulug‘nor (78,7 %),
Bo‘ston (70,6 %),
Marhamat (70,4 %),
Oltinko‘l (69,2 %),
Andijon (65,4 %) va
Jalaquduq (64,6 %)
tumanlarida.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 245,2 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 39,0 foizini tashkil etdi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




2021- yil yanvar-sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Baliqchi tumanida - 100 %, Buloqboshi tumanida - 100 %, Marhamat tumanida - 90 %, Ulug'nor tumanida - 85,2 %, Xonobod shahrida - 80,6 %, Andijon tumanida - 78,4 %, Oltinko'l tumanida - 76,1 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida - 6,1 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot(ishlar va xizmatlar) importining hajmi 216,5 million AQSh dollarini yoki umumiy import hajmining 14,0 foizini tashkil etdi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2021- yil yanvar-sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Baliqchi tumanida- 100 %, Buloqbooshi tumanida -100 %, Izboskan tumanida – 97,1 %, Paxtaobod tumanida – 96,6 %, Jalaquduq tumanida – 95,2 % va Oltinko'1 tumanida – 90,7 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida – 1,6 % ni tashkil etdi.



2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 717,0 milliard soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (1 339,6 mlrd. soʻm), Andijon (609,7 mlrd. soʻm), Shahrixon (562,9 mlrd. soʻm), Xoʻjaobod (516,2 mlrd. soʻm) tumanlari va Xonobod shahri (489,2 mlrd. soʻm) hissasiga toʻgʻri keladi. Boʻston tumanida (163,2 mlrd. soʻm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past boʻlib qolmoqda.



2021- yil yanvar- sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 29,0 foizni tashkil etdi.



2021- yil yanvar- sentabr holatiga tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buloqboshi tumani (100,0 %), Shahrixon tumani (81,4 %), Andijon tumani (81,0 %), Jalaquduq tumani (73,2 %), Marhamat tumani (71,3 %), Bo'ston tumani (68,5 %) va Xo'jaobod (67,0 %) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (4,1 %) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 10 770,9 mlrd.so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 89,9 foizini tashkil etdi. O‘shish sur‘ati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 109,8 foizni tashkil qildi.



2021- yilning yanvar- sentabrda tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘shish sur‘ati




Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (2 978,4 mlrd. so‘m), Shahrixon tumani (1 395,8 mlrd. so‘m), Asaka tumani (859,6 mlrd. so‘m) va Andijon tumani (786,9 mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keladi.



2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 3 868,9 mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 95,8 foizini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 114,2 foizni tashkil qildi.




2021- yilning yanvar- sentabrda tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (1 385,2 mlrd. so'm), Andijon tumani (405,4 mlrd. so'm), Shahrixon tumani (281,8 mlrd. so'm), Paxtaobod tumani (199,3 mlrd. so'm) hamda Oltinko'l tumanida (192,8 mlrd. so'm) qayd etildi.


2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 926,3 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 63,1 foizini tashkil qildi 2020- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 115,2 foizni tashkil qildi.



2021- yilning yanvar- sentabrda tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʼati





Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Andijon shahri (2 223,6 mlrd. soʻm), Andijon tumani (395,9 mlrd. soʻm), Shahrixon tumani (395,1 mlrd. soʻm), Asaka tumani (369,8 mlrd. soʻm) va Baliqchi (345,9 mlrd. soʻm) tumani hissasiga toʻgʻri keladi.




2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 94,9 foizni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,2 foizni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 65,2 foizni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 foizni tashkil qildi.




2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,7 foizni tashkil etib, bu esa 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 5,6 foizga ko'payishiga olib keldi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,1 foizni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,5 foizga ko'payish kuzatildi.






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjud hamda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 1 336 ta respondentlar ishtirok etdi.



2021- yil III- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 5,0 % (67 ta), sanoatda – 23,6 % (315 ta), qurilishda – 8,0 % (107 ta), savdoda – 37,4 % (499 ta), xizmatlar sohasida – 26,0 % (348 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq, mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha.



2021- yil III- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2021- yil III- chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2021- yilning III- choragida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 37,3 % ni, xizmat sohasida 36,2 % ni, savdo sohasida 34,3 % ni va sanoat sohasida 33,3 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilish sohasida 60,7 %, savdo sohasida 58,7 % , sanoat sohasida 57,1 % va xizmat sohasida 53,4 % ni tashkil etdi.

Joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 14,9 % ni, qurilish sohasida 11,3 % ni va xizmat sohasida 10,4 % ni tashkil etdi.



2021- yilning III- choragida tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo


Xizmatlar



2021- yilning III- choragida tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini yaxshilanishga ishongan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 43,3 %, sanoat sohasida 42,2 %, xizmat sohasida 42,2 % va savdo sohasida 42,1 % tashkil etdi.

Shu bilan birga iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilish sohasida 54,2 %, sanoat sohasida 51,1 %, savdo sohasida 50,9 % va xizmat sohasida 48,3 % tashkil etdi.

Joriy davrda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishga ishongan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 10,4 %, xizmat sohasida 9,5 %, savdo sohasida 7,0 % va sanoat sohasida 6,7 % ni tashkil etdi.



2021- yilning III- choragida tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar

